



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI



PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM MAZMUNINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI **MUAMMO VA YECHIMLAR**

**RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ANJUMANI**  
**2022-YIL, 25-APREL**



**BUXORO DAVLAT  
UNIVERSITETINING  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



*PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TEXNOLOGIK TA'LIM  
KAFEDRASI*

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM  
MAZMUNINI YANADA  
TAKOMILLASHTIRISH  
ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA  
YECHIMLAR**

**RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ANJUMANI**

**2022-yil, 25-aprel**

**BUXORO - 2022  
«DURDONA» NASHRIYOTI**

madaniyat"ga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o'zibo'larchilik, farzand tarbiyasida mas'uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo'lmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishga, kelajakka bo'lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo'ladi.

Oila, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avlod-dan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lom va barqaror bo'lishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Konsepsiyada tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar birdaniga ko'rinmasligi, noto'g'ri tarbiyaning asoratlari oradan ko'p yillar o'tgach, jamiyatda inson omili tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarda ko'rinishi mumkinligi qayd qilib o'tilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasidan tarbiyaning tizimli va uzviyligini ta'minlashda quyidagicha natijalar kutilmoqda:

- konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

- oilalar, ta'lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratiladi.

- oila, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avlod-dan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.



Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi.

Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa ma'naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo'laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma'nan, ruxan sog'lom, o'z otabobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo'lib o'sib unishining asosidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son
2. Xidirova F. "Oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash" –T.: 2007.

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**O.R.Ortiqov**

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

***Annotasiya:** Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimi ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, ilm-fan va innovatsiyalar taraqqiy etayotgan jarayonda milliy g'oyamizning tarkibiy qismlari haqida so'z boradi.*

***Tayanch atamalar:** ma'naviy-ma'rifiy ishlar, mafkura, ma'naviyat, go'yaviy kurash, mafkuraviy bilim, iroda, ma'naviy meros, milliy mafkura, mafkuraviy manfaat.*

Bugungi kunda ma'naviy islohotlar zamirida oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarni tarbiyalash va kamol topishi masalasi dolzarb. Yoshlar mustahkam e'tiqod, yuksak dunyoqarash, ma'rifat asosida o'zligini namoyon etmoqni, mamlakatimiz aholisini qalbi va ongini egallashga qaratilgan tahdidlarga qarshi turishi va ogoh bo'lib yashamog'i uchun milliy ruhdagi ta'lim-tarbiya masalalarini oliy ta'lim muassasalarida kuchaytirish bilan bir qatorda zamon talablariga moslashtirmoq zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimi ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlashtirish bo'lajak o'qituvchilardagi mafkuraviy immunitet, birinchidan, mustahkam e'tiqod va yuksak dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. Yoshlardagi ko'plab

xususiyatlar tug'ma bo'lsada, mafkuraviy immunitetni shakllantirib rivojlantirish borish zarur. Ikkinchidan, har bir kelajak avlod uchun o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Uchinchidan, ularda immunitet tizimi shakllansagina mafkuraviy daxlsizlik ta'minlanadi.

G'oya esa faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qurolga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda.

Mafkura - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek; "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalaydigan"[3] bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishimiz lozim.

Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ta'lim va tarbiya jarayoni bir kunlik ish emas, u insonlarda induvidlik davridan boshlanib, umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, ta'lim yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari.

Barcha tarkibiy qismlarning o'zaro birligi va yaxlitligi sifatida namoyon bo'luvchi ta'lim jarayonining negizini o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlari tashkil etadi. Mana shu faoliyat davomida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy bilimlar o'qituvchilar tomonidan berib boriladi.

Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muayyan vaziyatda insonning o'zi, xalqi, Vatani manfaatlari birligidan kelib chiqib, yot g'oyalarga qarshi tura olish malakalar, qadriyatlar tizimidir.

Talabalardagi mafkuraviy immuniteti tarkibini:

1) mafkuraviy bilim;

- 2) his-tuyg'u;
- 3) iroda;
- 4) ko'nikma
- 5) malakalar tashkil qiladi.

<b>Ma'naviy- ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar</b>	Jamiyatda sog'lom muhitning yaratilganligi
	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining o'rgatilishi
	Ma'naviy meros va milliy qadriyatlarning tiklanishi
	Qonun ustuvorligi va axloqiy – huquqiy me'yorlarining yangilanganligi
	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash markazining joriy etilishi
	Ta'lim tizimi va mazmunining yangilanganligi
	Fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuvi
Diniy bag'rikenglik va qadriyatlarning e'zozlanishi.	

Yoshlar ertangi jamiyatimiz taqdirini belgilovchi avloddir. Yoshlarga qat'iy, intizomli ta'lim va tarbiya bersak, yurtimiz rivojlangan davrlar qatoridan o'rin olishi muqarrardir. Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oila, mahalla, jamoatchilikning ta'siri katta. O'quv yurtlari, asosan, ta'lim berish bilan shug'ullansa, oila, mahalla va atrof muhit ta'siri ularning inson sifatida tarbiya topishida ko'mak beradi.

Shuning bilan bu omillar quyidagi masalalarni maqsadga muvofiq hal etishga amaliy yordam ko'rsatadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyat kishilarining qomusi, hayot va faoliyat yo'nalishining bosh kompassi ekanligini anglab yetishni;

- davlat ramzlari (bayroq, tamg'a, madhiya, valyuta, armiya, Prezident) har bir fuqaro uchun faxr, iftixor, g'urur namunasi ekanligini tushunib olish ko'nikmalarini shakllantirishini;

- fuqarolik burchi va mas'uliyati, har bir kishining Vatan, xalq, millat, oilasi oldidagi insoniy majburiyatlarini to'g'ri anglash va ularni o'zining hayot mazmuni deb tushunish his tuyg'ularini tarbiyalashini;

- fuqarolik kodeksi yoshlarda davlat mustaqilligining mustahkam huquqiy negizi ekanligini, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi inson faoliyatining barcha yo'nalishlarining manbai, poydevori ekanligini va inson mafaatlari ta'minlashga, huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan, qonunlar majmuini mafkuraviy jihatdan anglab yetishni;

- milliy mafkura va qonunlarni har bir jamiyat a'zosi davlat ichkarisida va tashqarisida shu davlatning o'ziga xos tizimiy



ЕнгиЛ атлетика тўгарақларида шуғулланувчи 10-11 ёшли болаларнинг умумий жисмоний тайёргарлиги кўрсаткичлари. (Л.Л.Нуруллоев).....	352
Gimnastikada o'quvchilarni psixologik tayyorgarligi. (M.Z. Jurayeva, L. Sayfiddinova) .....	359
Musobaqa oldi mashg'ulot jarayonlarida tasavvur. (Sh.M. Salixov, T.M. Salixov) .....	363
Qisqa masofaga yuguruvchi qizlar bilan o'tgaziladigan mashg'ulotlar tuzilishi. (L.L. Nurullayev, K.J. Rajabboyev) .....	365
O'qituvchi pedagogik kompetentligining psixologik negizlari. (N.A. Baxriyeva).....	368
Talabalarning kasbiy faoliyatida kreativ fikrlashning ahamiyati va uni dolzarbligi. (U.E. Ergashova).....	374
Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. (M.Umedjanova) .....	380
Uzluksiz ta'lim tizimi ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlashtirish istiqbollari. (O.R.Ortiqov) .....	384
O'qituvchi kommunikativ qobiliyatining namoyon bo'lish jihatlari. (N.A.Baxriyeva, U.Ochilova) .....	388
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish. (F.A. Berdibekova) .....	394
Tanqidiy fikrlash va uning globallashuv avridagi ahamiyati. (M.S. Shamsiyeva) .....	399
Ўқувчиларда мустақил фикрлашни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. (Н.А. Бахриева, М. Шоназарова).....	404
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish. (L.F. Salixova, M. Ro'ziyeva) .....	408
Дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш. (М.С. Камалова) .....	411
Pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchi faoliyatida tungan o'rni. (Sh. Mexmonaliyev) .....	415
Oliy ta'limda musiqiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishda kreativlik. (J.T. Yarashev, M.B. Kambarova) .....	418
Муסיқа фольклори воситасида бошланғич синф ўқувчиларини инновацион технологиялар орқали тарбиялаш механизми. (Х.Н. Ҳамидова).....	421